

INGLIZ TILI DARSLARIDA INTERAKTIV TA'LIM ORQALI O'QUVCHILARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH

Lutfiddinova Xilolaxon Baxtiyor qizi

Namangan davlat universiteti Lingvistika (ingliz tili) magistri

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz tili darslarida interaktiv ta'lim texnologiyalaridan foydalanish orqali o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish masalasi yoritiladi. Globallashuv sharoitida chet tilida muloqot qila olish qobiliyati shaxsning kasbiy va ijtimoiy muvaffaqiyatining muhim omili hisoblanadi. Shu bois ingliz tili ta'limida an'anaviy yondashuvlar o'rnini zamonaviy, faoliyatga yo'naltirilgan interaktiv metodlar egallamoqda. Tadqiqotda "Aqliy hujum", "Debat", "Rol o'ynash", "Klaster", "Jigsaw" kabi metodlarning muloqot ko'nikmalarini shakllantirishdagi roli o'rganiladi. Interaktiv ta'lim o'quvchilarni erkin fikrlashga, hamkorlikda ishlashga, og'zaki va yozma nutqni faol qo'llashga undaydi. Maqolada shuningdek o'quvchi motivatsiyasini oshirish, ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlash, kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik shart-sharoitlar tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga asoslanib ingliz tili darslarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning samarali yo'llari va metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: interaktiv ta'lim, kommunikativ kompetensiya, ingliz tili, innovatsion metodlar, muloqot ko'nikmalari, rol o'ynash, hamkorlikda o'qitish.

Аннотация. В данной статье рассматривается проблема развития коммуникативной компетенции учащихся посредством использования интерактивного обучения на уроках английского языка. В условиях глобализации умение эффективно общаться на иностранном языке является важным условием профессиональной успешности личности. Поэтому в системе языкового образования традиционные методы постепенно уступают место интерактивным технологиям обучения, ориентированным на активную деятельность учащихся. В исследовании анализируется эффективность методов «Мозговой штурм», «Дебаты», «Ролевая игра», «Клстер», «Метод Джигсо» в формировании навыков устной и письменной речи. Отмечается, что интерактивный подход способствует повышению мотивации, развитию критического мышления, сотрудничества и творческого подхода в обучении. На основе полученных результатов предложены методические рекомендации по совершенствованию коммуникативной компетенции учащихся на уроках английского языка.

Ключевые слова: интерактивное обучение, коммуникативная компетенция, английский язык, инновационные методы, навыки общения, групповая работа.

Annotation. This article explores the development of students' communicative competence through the use of interactive teaching methods in English language lessons. In the era of globalization, the ability to communicate effectively in a foreign language has become an essential factor for academic and professional success.

Therefore, traditional teaching approaches are gradually being replaced by interactive and learner-centered methods. The study analyzes the impact of interactive strategies such as "Brainstorming," "Debate," "Role Play," "Cluster Method," and "Jigsaw Technique" on the formation of speaking and writing skills. Interactive learning promotes collaboration, active participation, creativity, and critical thinking among students. The article also highlights pedagogical conditions that enhance learners' motivation and support communicative competence development. Based on the findings, practical recommendations are provided for improving communication skills in English classes using interactive strategies.

Keywords: interactive learning, communicative competence, English language, innovative methods, communication skills, role play, collaborative learning.

KIRISH

Bugungi globallashuv jarayonida xorijiy tillarni, xususan ingliz tilini o'qitish har bir davlatning ta'lim siyosatida ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ingliz tili nafaqat xalqaro muloqot tili, balki ilm-fan, texnologiya va biznesning asosiy axborot vositasiga aylangan. Shu sababli o'quvchilarda ingliz tili bo'yicha mustahkam bilim, malaka va ko'nikmalarni shakllantirish zamonaviy ta'lim tizimining eng muhim vazifalaridan biridir. Biroq so'nggi yillarda til o'qitishning an'anaviy usullari, asosan grammatikani yodlash va mashq bajarish bilan chegaralanib qolayotgani, o'quvchilarda kommunikativ ko'nikmalar yetarli darajada rivojlanmayotgani ta'kidlanmoqda. Bu esa ta'lim samaradorligini oshirish uchun yangicha yondashuvlarni joriy etishni taqozo etadi.

Zamonaviy ta'lim metodlaridan biri bo'lgan interaktiv ta'lim texnologiyalari o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydi, ularni mustaqil fikrlashga, o'z fikrini erkin bayon etishga, jamoada ishlashga o'rgatadi. Interaktiv ta'lim – bu o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro hamkorlikka asoslangan, o'quvchini bilim olish jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradigan innovatsion pedagogik jarayondir. Mazkur yondashuv ingliz tili darslariga tatbiq etilganda o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasi, ya'ni real hayotiy vaziyatlarda samarali muloqotga kirishish qobiliyati sezilarli darajada rivojlanadi. Chunki interaktiv metodlar, avvalo, tilni amaliy qo'llashni ta'minlaydi.

Kommunikativ kompetensiya o'quvchining tinglab tushunish, og'zaki nutq, o'qish va yozish kabi asosiy til ko'nikmalarini uzviy rivojlantirishni nazarda tutadi. Bu kompetensiyani shakllantirishda "Aqliy hujum", "Rol o'ynash", "Debat", "Klaster", "Jigsaw", "Insert", "SWOT tahlil", "Savol-javob zanjiri" kabi interaktiv metodlarning o'rni katta. Ushbu usullar o'quvchilarda nafaqat til bilimlarini mustahkamlash, balki muloqot madaniyatini rivojlantirish, kreativ fikrlash va muammolarni hal etish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, kommunikativ yondashuv asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar o'quvchilarning o'zaro hamkorlikda bilim egallashiga, o'quv jarayonida ijtimoiy faol bo'lishiga va o'rganish motivatsiyasining ortishiga yordam beradi.[1; 184]

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining xorijiy tillarni o'qitishni takomillashtirishga doir qator qaror va farmonlari asosida ta'lim tizimida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Ularning barchasi chet tillarini o'qitish samaradorligini oshirish,

o'quvchilarning amaliy til ko'nikmalarini kuchaytirish hamda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga qaratilgan. Mazkur islohotlarni hayotga tatbiq etishda interaktiv ta'lim texnologiyalarining o'rni beqiyosdir. Chunki mazkur usullar til o'qitish mazmunini yangilash, darslarni qiziqarli va mazmunli tashkil etish, o'quvchilarning mustaqil fikrlashini qo'llab-quvvatlash imkonini beradi.

Shu nuqtai nazardan, mazkur maqolada ingliz tili darslarida interaktiv ta'lim metodlaridan foydalanishning nazariy asoslari, ularni samarali qo'llash yo'llari hamda bu metodlarning o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishdagi roli ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqot muammosining dolzarbligi ingliz tili o'qitish jarayonida interaktiv metodlardan foydalanish ehtiyoji ortib borayotgani va bu usullar ta'lim sifatini oshirishda muhim omil ekanligi bilan izohlanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI

So'nggi o'n yilliklarda xalqaro va milliy tadqiqotlarda interaktiv ta'lim va kommunikativ yondashuv mavzusi katta e'tibor qozongan. Nazariy asoslar sifatida kommunikativ yondashuv (communicative approach), konstruktivizm va faol o'qitish konsepsiyalari keng qo'llanadi. Tadqiqotchilar interaktiv texnologiyalar — jamoaviy ishlash, rol o'ynash, jigsaw va debat metodlari — til ko'nikmalarini tezroq va samaraliroq shakllantirishiga oid empirik dalillarni taqdim etgan. Masalan, amaliy tadqiqotlar og'zaki nutq va tinglab tushunish ko'nikmalarida sezilarli o'sish, o'quvchi motivatsiyasining ortishi va o'zini-o'zi baholash qobiliyatining yaxshilanishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ayrim tadqiqotlar interaktiv metodlarning natijadorligi dars dizayni, o'qituvchining malakasi va sinf resurslariga bog'liqligini ta'kidlaydi.

Milliy adabiyotlarda ingliz tili o'qitishdagi metodik yangiliklar, darslarni multimediya bilan boyitish va o'quvchi markazli yondashuv masalalari chuqur tahlil qilingan. Ta'lim siyosati hujjatlari va tajribaviy maqolalarda interaktiv metodlarni joriy etish uchun makro darajadagi qo'llab-quvvatlash, o'qituvchilarni qayta tayyorlash va baholash tizimini modernizatsiya qilish zarurligi qayd etilgan. Adabiyotlarda mavjud bo'lgan bo'shliqlar qatoriga: interaktiv metodlarning uzoq muddatli ta'siri, aniq yosh va darajadagi o'quvchilar uchun moslashgan dizaynlar hamda mintaqaviy shart-sharoitlarda samaradorlikni o'lchash usullarining yetishmasligi kiradi. Shu sababli mazkur tadqiqot ushbu bo'shliqlarni to'ldirishga qaratilgan.[2; 132]

Tadqiqotning maqsadi: ingliz tili darslarida interaktiv ta'lim metodlarini joriy etish orqali o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini aniqlash va samarali usullarni taklif etish.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur tadqiqot davomida ingliz tili darslarida interaktiv ta'lim texnologiyalarini qo'llash natijasida o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasi qay darajada rivojlanishi mumkinligi amaliy jihatdan sinovdan o'tkazildi. Tadqiqot maktab ta'limi sharoitida olib borilgan bo'lib, unda 6–7-sinf o'quvchilaridan iborat tajriba va nazorat guruhlarini tashkil etildi. Nazorat guruhlarida darslar an'anaviy metodlarga tayanib o'tkazildi, ya'ni grammatika–tarjima yondashuvi, mashq bajarish va yod olish asosiy o'rinda bo'ldi. Tajriba guruhlarida esa interaktiv metodlar majmuasi tizimli ravishda tatbiq qilindi. Tadqiqot jarayonida “Aqliy hujum”, “Debat”, “Rol o'ynash”, “Jigsaw”, “Fishbone”, “Cluster”, “Savol-javob zanjiri” kabi metodlar asosida mashg'ulotlar

tashkil etildi.

Avvalo o'quvchilarning interaktiv metodlarga bo'lgan munosabati, darsdagi faolligi va muloqotga kirishish darajasi kuzatildi. Tadqiqotning birinchi bosqichida olingan kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, tajriba guruhidagi o'quvchilar dastlab til o'rganish jarayonida erkin fikr bildirishdan tortinishdi, grammatik xatolar qilishdan qo'rqishdi va ingliz tilida gapirishga jur'at etishmadi. Biroq 5–6 ta dars siklidan so'ng interaktiv metodlar ta'siri sezila boshladi: o'quvchilarda o'ziga ishonch oshdi, kichik guruhlarda ishlash jarayonida sheriklari bilan muloqot qilishga, o'z fikrini ifoda etishga harakat qila boshlashdi. Bu o'zgarishlarning psixopedagogik sababi shundaki, interaktiv metodlar o'quvchilarga o'rganish jarayonida psixologik qulaylik yaratadi, ular o'z fikrini bildirish uchun bosim ostida qolmaydi.

Shuningdek, tajriba natijalarida darslarning motivatsion jihati ham tahlil qilindi. Tajriba guruhidagi o'quvchilar ingliz tili darslarini zerikarli deb hisoblashdan boshlab, darsga qiziqish bilan qatnashishgacha bo'lgan psixologik o'zgarishni boshdan kechirdilar. Tadqiqot davomida o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra, tajriba guruhi o'quvchilarining 78 foizi interaktiv usullar yordamida o'tkazilgan darslar an'anaviy darslarga nisbatan ko'proq motivatsiya uyg'otishini bildirgan. Bu natijalar o'quvchilarning ta'limga bo'lgan ichki ehtiyojini faollashtirishda interaktiv metodlar samarali ekanini isbotlaydi.

Kommunikativ kompetensiyani baholash uchun og'zaki nutq (speaking), tinglab tushunish (listening), o'qish va yozish ko'nikmalarini qamrab oluvchi mezonlar ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalarini tahlil qilish jarayonida tajriba guruhida og'zaki nutq ko'nikmasi sezilarli darajada o'sganligi aniqlandi. Bu borada ayniqsa "Rol o'ynash", "Debat" va "Dialog yaratish" metodlarining ta'siri katta bo'ldi. O'quvchilarning nutq faolligi oshdi, so'z boyligi kengaydi va ularning til vositalaridan foydalanish tezligi ortdi. Tajriba guruhining o'rtacha og'zaki nutq bahosi 23% ga oshgani qayd etildi. Bu esa til o'qitishda interaktiv yondashuv nazariyasining amaliy tasdig'idir.[4; 240]

Tinglab tushunish ko'nikmasi bo'yicha ham ijobiy natijalar kuzatildi. Interaktiv darslarda audio materiallar, video lavhalar, dialoglar, interaktiv topshiriqlar qo'llanildi. Natijada tajriba guruhi tinglab tushunish bo'yicha 19% lik o'sishni qayd etdi. Darsda tovushlar va intonatsiya ustida ishlanishi, real hayotiy vaziyatlar asosida mashqlar bajarilishi o'quvchilarda ingliz tilini tabiiy qabul qilish ko'nikmasini shakllantirdi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, o'qish ko'nikmasi ham interaktiv metodlar ta'sirida sezilarli rivojlandi. Matn ustida ishlashda "Insert", "Klaster", "Fishbone" kabi metodlar qo'llanildi. Ular o'quvchilarning matnni tushunish qobiliyatini oshirish, asosiy g'oyani ajrata olish, matndan muhim ma'lumotlarni topish va xulosa chiqarishni o'rgatishda samarali bo'ldi. Natijada tajriba guruhi o'quvchilarining o'qish ko'nikmasida 16% ga yaqin o'sish kuzatildi.

Yozma nutq bo'yicha tahlil shuni ko'rsatdiki, interaktiv yondashuv yozma ifoda ko'nikmasini ham rivojlantiradi. O'quvchilar kichik guruhlar bilan ishlash jarayonida "story-writing", "gapni davom ettir", "fikr almashish" kabi faol mashqlarni bajardilar. Mashqlar orqali o'quvchilarning yozuv madaniyati, jumlar qurish, fikrni mantiqiy bayon etish ijodkorligi shakllandi. Post-test natijalariga ko'ra, tajriba guruhining yozma nutq ko'nikmasida 21% lik o'sish qayd etildi.

Muammo hal etish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalari ham tahlil qilingan.

Interaktiv darslar o'quvchilarni tayyor bilimlarni qabul qilishdan ko'ra, mustaqil fikrlashga, tahlil qilishga, savol berishga va muammolarni izchil hal etishga undadi. Ayniqsa "Debat", "Case study" va "Problem-solving" metodlari yordamida bunday ko'nikmalar kuchaydi.[5; 156]

Tadqiqot natijalariga ko'ra, interaktiv metodlar o'quvchilar o'rtasida ijtimoiy hamkorlik, jamoaviy fikrlash, o'zaro hurmat va muloqot madaniyatini shakllantirishga ham xizmat qildi. Guruhli ishlash usullari o'quvchilarda liderlik, mas'uliyat, hamkorlik, vaqtni boshqarish, murosa qilish va qaror qabul qilish malakalarini rivojlantirdi.

Pedagogik jihatdan tahlil shuni ko'rsatdiki, interaktiv metodlarni samarali qo'llash uchun o'qituvchining pedagogik mahorati, darsni to'g'ri loyihalash, texnologik vositalarni qo'llash, nutq faoliyatini uyg'unlashtirish va darsni kommunikativ maqsadga yo'naltirish talab etiladi. O'qituvchi endi bilim beruvchi emas, balki o'quv jarayonini tashkil etuvchi, yo'naltiruvchi va fasilitator sifatida namoyon bo'ldi.

Tadqiqot davomida ayrim muammolar ham kuzatildi. Masalan, ba'zi o'quvchilar ingliz tilida erkin muloqot qilishdan uyalishadi yoki psixologik to'siqlarga duch kelishdi. Bundan tashqari dars vaqtining cheklanganligi, sinfning haddan tashqari to'la bo'lishi va o'quv vositalarining yetishmasligi interaktiv metodlarni qo'llashda ayrim qiyinchiliklar tug'dirdi. Ammo ushbu muammolar darslarni puxta rejalash va o'qituvchining to'g'ri rahbarligi orqali bartaraf etildi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ingliz tili darslarida interaktiv ta'lim metodlaridan foydalanish o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda eng samarali vositalardan biri ekanligi isbotlandi. Ushbu metodlar o'quvchilarda nafaqat til bilish ko'nikmalarini, balki muloqot madaniyatini, ijtimoiy faollikni, mustaqil fikrlashni, jamoa bilan ishlash malakasini ham rivojlantiradi. Shu sababli interaktiv ta'limni ta'lim jarayonining ajralmas qismi sifatida qarash, uni didaktik tizimning muhim bo'g'ini sifatida yanada rivojlantirish zarur.

Kelgusida ushbu yo'nalishda tadqiqotlarni davom ettirish maqsadga muvofiq bo'lib, ayniqsa, interaktiv metodlarning turli yosh guruhlari va darajalardagi o'quvchilarga ta'sirini chuqur o'rganish, natijalarni ta'lim amaliyotiga tatbiq etish lozim. Bu esa nafaqat ingliz tili ta'limining sifatini oshiradi, balki xalqaro talablarga javob beradigan raqobatbardosh yoshlarni tayyorlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abduqodirov A. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. – 184 b.
2. Abdullayeva Q. Chet tillarni o'qitishda interaktiv metodlar. – Toshkent: O'qituvchi, 2019. – 132 b.
3. Alimova R. Kommunikativ yondashuv asosida ingliz tilini o'qitish. – Namangan: NamDU nashriyoti, 2020. – 168 b.
4. G'ulomova M. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2015. – 240 b.
5. Ergasheva M. Ingliz tilini o'qitishda lisoniy kompetensiyani shakllantirish. – Buxoro: BDU nashriyoti, 2018. – 156 b.
6. Xasanboeva O., Tolipova J. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2014. – 304 b.